

SAYDALIYEVA SH.I.

FarDU magistranti.

Shahnoza@gmail.com.

SHAXS RUHIY SALOMATLIGIGA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING TA'SIRI

Annotatsiya: Umuminsoniy qadriyatlar har qanday jamiyat va millatda shaxs ruhiyatiga singib ketgan va uning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolamizda bu masalalarga alohida to'xtalib o'tilgan va shaxs ruhiyatiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Umuminsoniy qadriyatlar, qadriyat, shaxs, shaxs ruhiyati, individuallik, jamiyat, insoniylik.

Аннотация: Общечеловеческие ценности заложены в психике человека в любом обществе и народе и оказывают непосредственное влияние на его психическое состояние. В нашей статье эти вопросы подробно рассмотрены и выявлено их влияние на психику человека.

Ключевые слова: Общечеловеческие ценности, ценность, личность, личность, индивидуальность, общество, человечность.

Annotation: Universal values are embedded in the psyche of a person in any society and nation and have a direct impact on his mental state. In our article, these issues are discussed in detail and their impact on the psyche of a person is revealed.

Keywords: Universal values, value, personality, personality, individuality, society, humanity.

Inson yaralibdiki, uning hayoti tabiat, atrof-muhit, jamiyat, insonlar va tug'ilib o'sgan joyidagi umuminsoniy qadriyatlar, qarashlar bilan chambarchas bog'liq va bog'lanib boradi. Bu tushunchalarning insonga shu qadar ta'siri va ahamiyati yetakchi darajadagi, go'yoki insoniyat bu tushunchalar ta'sirida va oqimida yashaydi. Bu tushunchalar inson ruhiy salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Umuminsoniy qadriyatlar nima degani? Bu tushuncha inson rivojiga qay darajada o'z hissasini qo'sha oladi? Bu savollarga javob berish uchun eng avval bu tushunchani batafsilroq ko'rib chiqishimiz darkor, albatta.

Har qanday huquqiy davlat va demokratik fuqarolik jamiyati qurishda, barkamol avlodni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayaniladi. Bunda barcha fuqarolarning shaxs ruhiy salomatligida umuinsoniy qadriyatlarning muhim omil ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar xalqning kuch-qudrat belgisi sanaladi. Davlatning turli xil davrdagi rivojlanish bosqichlarida shaxs va jamiyat munosabatlari yangicha ko'rinishlarga ega bo'ladi. Rivojlanib borayotgan davlatda insonning har tomonlama, ya'ni ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, ruhiy yangilanishida shaxs ruhiy salomatligiga e'tibor qaratiladi. Zero, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarda yuksak insoniy fazilatlar va ma'naviyat, inson ruhiy salomatligi qanchalik zarur bo'lsa, umuinsoniy qadriyatlar ham shunchalik zarurdir.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikamizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida keng islohatlar amalga oshirildi. Xalqimizning qarashlari va hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Avvalo, qadriyat deganda inson, uning hayoti, faoliyati, ongli mavjudot sifatida yashashi uchun zarur narsalar, voqea va hodisalar bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli hodisa tushuniladi. Shu bois tadqiqot obyekti sifatida "qadriyat" mavzusi ko'lami keng mavzulardan

sanaladi. Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

“Umuminsoniy qadriyatlar – ular ma'lum bir vaqtda insonlar bilan birga yashashni uyg'unlashtirishga yordam beradigan xatti-harakatlar normalari yoki shakllari guruhidir. Ular ijtimoiy guruh tomonidan ijobiy deb hisoblangan, ammo turli madaniyatlar tomonidan taqsimlanishi mumkin bo'lgan fazilatlar, xatti-harakatlar yoki xususiyatlar.

Umuminsoniy qadriyatlar falsafa, axloqni o'rganish obyekti bo'lib, aksiologiya falsafaning subyektiv va obyektiv nuqtayi nazardan o'rganishga mas'ul bo'limi hisoblanadi”[5.].

Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi keng, izohlash esa ma'no jihatidan ma'lum hajmga solib bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, erkinlik, mehr-oqibat, adolat, tenglik, sevgi, javobgarlik, halollik, birdamlik, haqiqat, jasorat, do'stlik, sharaf, tinchlik, hamfikrlik kabi ko'plab insonning ijobiy fazilatlarini kirgizishimiz mumkin.

Bularning har biriga alohidadan to'xtalib o'tishimiz va ko'plab misollar bilan javob berishimiz mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar butun dunyo, millat va elatlarga umuman olganda insoniyatga xos bo'lgan jihatlardir. Bu tushunchalarning har birining zamirida olamcha ma'no va mazmun, g'oya bor. Insoniyat paydo bo'libdiki, bu tushunchalar u bilan yonma-yon va qadamba-qadam birgadir. Aslida insonni inson qilib turgan belgilar ham aynan shu tushunchalardir, tuyg'ulardir.

“Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda, turli sohalarda qo'llaniladi.

Qadriyatning kundalik hayotdagi ma'nosi kishilar o'rtasidagi muloqotlarda, ommaviy axborot vositalarining xabarlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lmoqda. Kundalik hayotda, ko'pchilik nazarida narsalar(masalan, qimmatbaho kiyimlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an'ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, odamlar o'zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham “qadriyat” tushunchasini qo'llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko'pchilik tomonidan qo'llanadigan qadriyat iborasi odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan obyekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ishlatiladi”[4.322-b].

Yuqorida aytib o'tilganidek insoniyat uchun zarur, o'zini ularsiz ayro tasavvur qila olmaydigan narsa, hodisalarga qadriyat sifatida qaraladi. Ammo insonning nimani o'zi uchun qadriyat deb hisoblashi esa, uning ruhiy holatini ko'rsatib turadi, albatta. Chunki umuminsoniy qadriyatlardan tashqari har bir shaxsning o'z qadriyat tushunchasi va qadriyat deb hisoblaydigan narsalari, hodisalari bor. Bu masalaga izoh berishdan oldin, shaxs va uning ruhiy holati deganda nimani tushunish kerak ekanligiga to'xtalib o'tish kerak, albatta.

“Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtayi nazaridan turlicha talqin qilinadi. U o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayoti mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin”[5.].

Berilgan fikrlardan shaxs tushunchasi haqidagi to'laqonli fikrlarni ko'rib chiqdik. Har bir shaxs alohida olam, alohida individuallikdir. "Shaxs" so'zi ingliz tilida "personality" qabilida qabul qilingan bo'lib, u lotincha "persona" so'zidan olingan. " Shaxs" tushunchasi psixologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda bir-biridan farqlanib turadigan turli shakllarda uchraydi"[5].

Har bir insonda ruhiyat bor. Zamonaviy psixologiyada har bir shaxsni u xoh erkak bo'lsin, xoh ayol alohida ruh sifatida qarash mavjud. Ruhiyat masalasi juda murakkab va juda muhimdir. Insonning butun xatti-harakati, yashash tarzi uning ruhiy holati bilan bog'liqdir. Ruhiy holat esa qadriyatlarga bevosita borib taqaladi. Har bir davlatning, jamiyatning umumiy qadriyatlari bor. Bu esa o'sha jamiyatdagi insonlar ongiga, o'zligiga singib ketgan va o'z ta'sirini ko'rsatadi. Lekin shunday umuminsoniy qadriyatlar borki, ular butun yer yuzidagi insonlar ruhiyatiga singib ketgan va insoniylikni ta'minlaydi. Qaysi din va qanday dunyoqarashga qadriyatga ega bo'lishmasin hammaning yuragida birdek mujassam bo'ladi. Ruhiy salomatlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – Toshkent. O'zbekiston: 2017-yil, 1 tom.
2. Tohir Malik. Odamiylik mulki (axloq kitobi) – Toshkent, Sharq nashriyoti, 2013-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" – Toshkent, "O'zbekiston", 2018-yil, 2-tom.
4. Nazarov Q. Aksiologiya – Qadriyatlar falsafasi – Toshkent, Akademiya nashriyoti, 2011-yil.
5. Internet ma'lumotlari.